

I. TOSHKENT VILOYATI YALPI HUDUDIY MAHSULOTI

2025- yil yanvar-dekabr*


1. Yalpi hududiy mahsulot
2. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot
3. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
4. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
5. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

1. Yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) hajmi joriy narxlarda **180 177,4** mlrd so'mni hamda 2024- yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **7,2 %** ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi **9,7 %** ga yetdi.

YAHM hajmi va o'sish sur'atlari,
(yanvar-dekabr)




*) Dastlabki ma'lumotlar

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan **111,1 %** ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – **115,6 %** va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **110,7 %** qayd etildi.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksi qurilishda – **106,8 %** qayd etildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksleri
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2024- yil	2025- yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot – jami:	151 251,8	180 177,4	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	146 298,3	175 381,5	107,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	4 953,5	4 795,9	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	146 298,3	175 381,5	107,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 171,7	30 143,1	104,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	74 913,2	91 613,3	107,1
sanoat	62 852,2	77 451,1	106,6
qurilish	12 061,0	14 162,2	110,0
Xizmatlar	45 213,4	53 625,1	109,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14 792,8	17 864,3	112,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	7 478,3	9 664,6	115,1
boshqa xizmat tarmoqlari	22 942,3	26 096,2	105,2

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **104,1 %** ni (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,2 %), sanoatda – **106,6 %** ni (44,2 %), qurilishda – **110,0 %** ni (8,1 %), xizmatlar sohasida – **109,1 %** ni (30,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **112,1 %** (10,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa **115,1 %** (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida **105,2 %** dan (14,8 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi jamiga nisbatan % da**


	2024- yil yanvar- dekabr	2025- yil yanvar- dekabr
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17,9	17,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	51,2	52,3
sanoat	43,0	44,2
qurilish	8,2	8,1
xizmatlar	30,9	30,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,1	10,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	15,7	14,8

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **97,3 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **2,7 %** ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **17,2 %** ni, sanoat tarmog'i **44,2 %** ni, qurilish **8,1 %** ni va xizmatlar sohasi **30,5 %** ni tashkil qildi.

YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (yanvar-dekabr)

2024- yil



2025- yil



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, YAHM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan YAHM (YAQQ) tarkibida sanoatning ulushi 51,2 % dan 52,3 % ga oshdi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining ulushi 30,9 % dan 30,5 % ga hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 17,9 % dan 17,2 % ga kamaydi.

3. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi **57 480,2** ming so'mni tashkil etdi, bu esa 2024- yilning mos davriga nisbatan **5,4 %** ga ko'pdir.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga YAHM hajmi **49 105,4** ming so'mni, o'sish sur'ati esa **105,6 %** ni tashkil etgan edi.

Aholi jon boshiga YAHM hajmi va o‘sish sur‘atlari (yanvar-dekabr)



Ma’lumot uchun: Respublika bo‘yicha 2025- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi **48 816,4** ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,7 %** ga o‘sdi. 2024- yilning yanvar- dekabr oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda **41 306,7** ming so‘mni va **4,5 %** ni tashkil qilgan.

4. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **96 514,4** mlrd so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 80 640,9 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi **55,0 %** ni (2024- yilning yanvar- dekabr oylarida – 55,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

Yanvar-dekabr oylarida

kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

(jamiga nisbatan %da)



5. Yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, YAIMga teng ko‘rsatkich hisoblanadi, ya’ni u ushbu hududning rezidentlari bo‘lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy narxlarda yalpi qo‘shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali baholashni ko‘zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo‘yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim tarkiblari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma’lumotlarning yo‘qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o‘ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydi.

Shu sababdan, ular O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAHM hajmini hududning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi hududiy mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi hududiy mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda hududning o‘rtacha aholisi soni bo‘yicha demografiya va mehnat statistikasi ma’lumotlaridan foydalaniladi.